

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

***60410600 – Bank ishi bakalavriat ta'lif yo'naliishing***

***MALAKA TALABI***

**Toshkent-2024**



## ISHLAB CHIQILGAN VA KIRITILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti.

### TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” iyun dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

### JORIY ETILGAN:

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r	bet
1. Umumiy tavsifi.....	4
1.1. Qo‘llanish sohasi .....	4
1.1.1. Malaka talabining qo‘llanilishi.....	4
1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	4
1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4. Kasbiy vazifalari.....	5
2. Kasbiy kompetensiyalariga qo‘yiladigan talablar .....	6
3. Amaliyotlarga qo‘yiladigan talablar .....	7
4. Fanlar katalogining tuzilishi .....	8
Bibliografik ma’lumotlar.....	9
Kelishuv varag‘i.....	10

## **1. Umumiy tavsifi**

60410600 – Bank ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Bu ta'lim shakli bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talablari 60410600 – Bank ishi ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuyini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va o'quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;

ta'lim yo'nalishining o'quv rejasi va o'quv dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;

oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot va korxonalar;

oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

## **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Davlat, aksionerlik, qo'shma va xususiy tijorat banklarini boshqarish va nazorat qilish, auditdan o'tkazish, ularni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish istiqbollarini belgilash bo'yicha iqtisodiy, tashkiliy masalalar yechimlarini banklarning rivojlanish qonuniyatlari hamda zamonaviy konsepsiyalari asosida ishlab chiqish va amalga oshirish bilan bog'liq kompleks masalalar majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki, tegishli vazirlik va idoralar, tijorat banklari, nobank kredit tashkilotlari, byudjetdan tashqari jamg'armalar, investitsiya

va sug‘urta tashkilotlari, auditorlik tashkilotlari, aksiyadorlik jamiyatlari, davlat hokimiyati organlari, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlari, birjalar, qo’shma korxonalar, moliya-bank sohasida xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlar, moliya-kredit bozorlarida faoliyat yurituvchi muassasalar-bank ishi-iqtisodchi.

60410600 – *Bank ishi* bakalavriat ta’lim yo’nalishi bo‘yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o‘tgan taqdirda, professional ta’lim muassasalarida ta’limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha pedagogik faoliyati bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *loyihaviy-konstrukturlik;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60410600 – *Bank ishi* ta’lim yo’nalishi bo‘yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni samarali bajarishga qodir bo‘lishi lozim:

#### **Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda moliya-bank tizimining rivojlanish tendensiyalari va ko‘rsatkichlariga baho berish, uni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari va bu borada amalga oshiriladigan islohotlar mohiyatini tushunish hamda tadqiqot ishlarini ulardan kelib chiqqan holda amalga oshirish;

ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda iqtisodiyot sohasidagi zamonaviy uslublarni qo‘llay olish;

mavzu (topshiriq) bo‘yicha ilmiy-amaliy ma’lumotlarni yig‘ish, tahlil qilish va olingan ma’lumotlarni tizimlashtirish;

ilmiy-tadqiqot natijalari va yangiliklarni amaliyatga tadbiq etish yuzasidan asoslangan takliflarni loyiha chifatida ishlab chiqish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

bank tizimida korporativ boshqaruv tartib va tamoyillarini bilish;

molika-bank tizimiga doir qonunchilikka muvofiq boshqaruv mezonlarini anglagan bo‘lish;

bank ishi va auditini to‘g‘ri tashkil qilish va samarali boshqarishni amalga oshirish;

bank tizimida moliyaviy boshqaruv va xodimlarni boshqarish strategiyalarini bilishi va amaliyotda qo‘llay olish;

molika-bank faoliyatidagi muammolarni yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ishining natijalarini baholash;

moliya-bank sohasining xalqaro hamda milliy mosligini monitoring qilish.

### **Loyihaviy-konstruktorlik faoliyatida:**

Bank-moliya sohalarida faoliyatining texnologik jarayonlarini loyihalash, xizmatlarning texnologik jarayonlari va mehnatni tashkil etish va ishlab chiqarish jarayonlarini boshqarish;

loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;

amaliyotda axborot texnologiyalarning xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy uslublarini, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorlarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash.

### **Axborot-tahliliy faoliyatida:**

Loyihalar samaradorligini baholash;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo'yicha hisobot tayyorlash; boshqaruv qarorlarining samaradorligini baholash.

## **2. Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar.**

kasbiy faoliyatda tabiiy fanlarning asosiy qonunlaridan foydalana olishi, matematik tahlil va modellashtirish, nazariy va eksperimental tadqiqotlar usullarini qo'llay olishi;

og'zaki va yozma shaklda davlat tili qoida va meyorlariga amal qilgan holda fikr, mulohaza, g'oya, taklif, ta'rif va xulosalarni mantiqiy, to'g'ri, asosli va aniq bayon etish hamda ifodalay olishi;

xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

zamonaviy axborot va innovatsion texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, raqamlı platformalar, web saytlardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobatbardosh umumkasbiy tayyorlarlikka ega bo'lishi;

yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

bank-moliya sohasida faoliyatni tashkil etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda qatnashish;

bank-moliya sohasiga tegishli mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi fan-teknika yutuqlarini, maxsus adabiyotlarni va boshqa ilmiy-texnik axborotlarni o'rganish;

bank-moliya sohasi faoliyati sifatini boshqarish jarayonlarini ishlab chiqish va tatbiq qilish;

bank-moliya sohasida jarayonlarni amalga oshirish uchun zarur bo'lган resurslarni rejalashtirish;

zamonaviy axborot texnologiyalari tizimini yaratish, ulardan foydalanish bilan bog'liq jarayonlar monitoringi va sifatini baholash metodlari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

bank-moliya sohasida faoliyat ko'rsatish va ular faoliyatining xalqaro hamda milliy talablariga mos kelishi borasida jarayonlarni nazorat qilish;

kasbga oid muammolar yechimlarini amaliyatga tatbiq etish;

fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, uni bajarish, nazorat qilish va amalgalash oshirgan ishining natijalarini baholash;

bank-moliya sohasining xalqaro hamda milliy mosligini monitoring qilish;

bank-moliya sohasi faoliyatini rejalashtirish va uning samaradorligini oshirishning ichki imkoniyatlarini qidirib topish;

bank-moliya sohasi faoliyatini boshqarishning zamonaviy muammolari va xususiyatlarini aniqlash, ular faoliyatini boshqarishning zamonaviy yo'nalishlarini ishlab chiqish;

bank-moliya sohasi faoliyatini tashkil qilish, baholash va auditorlik tekshiruvlarini o'tkazishda zamonaviy metodlarni qo'llash;

bank-moliya sohasida hujjatlarni rasmiylashtirish va umumlashtirish, moliyaviy hisobotlarni shakllantirish hamda rasmiylashtirishda zamonaviy metodlarni qo'llash;

bank-moliya sohasida jarayonlarni hisobga olishda, moliyaviy-xo'jalik faoliyati va audit ishi sifatini baholashda zamonaviy hisoblash vositalaridan foydalanish;

bank-moliya sohasi faoliyatini tahlil qilish;

molivaviy hisobot ma'lumotlaridan foydalanish qobiliyatiga ega bo'lishi kerak.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyot o'tkaziladi:

#### **1. Malakaviy amaliyot**

## 2. Fanlar katalogining tuzilishi:

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiylar yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>			
1.01	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1, 2
1.02	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	300	10	1, 2
1.03	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	1
1.04	XT1106	Xorijiy til 1 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	180	6	1
1.05	XT1204	Xorijiy til 2 (ingliz, fransuz, nemis, koreys, yapon, xitoy)	120	4	2
1.06	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.07	ITT1105	Iqtisodiy ta'limotlar tarixi	150	5	1
1.08	O'EYT1104	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.09	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.10	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.11	AKKK1204	Akademik ko'nikmalar va kasbiy kompetentlik	120	4	2
1.12	FAL1304	Falsafa	120	4	3
1.13	STAT1306	Statistika	180	6	3
1.14	EKMET1310	Ekonometrika	150	5	3
1.15	MIKIQ1310	Mikroiqtisodiyot	150	5	3
1.16	MAKIQ1410	Makroiqtisodiyot	150	5	4
1.17	PB13410	Pul va banklar	300	10	3,4
1.18	MH145	Moliyaviy hisob	150	5	3
1.20	MT145	Moliyaviy tahlil	150	5	4
1.21	BBH14510	Banklarda buxgalteriya hisobi	300	10	4,5
1.22	AUD155	Audit	150	5	5
1.23	XVKM155	Xalqaro valyuta-kredit munosabatlari	150	5	5
1.24	BI15610	Bank ishi	300	10	5,6
1.25	BA165	Bank auditি	150	5	6
1.26	IBI165	Islomiy bank ishi	150	5	6
1.27	BM165	Bank menejmenti	150	5	6
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlar</b>	<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>4-7</b>
2.00		Tanlov fanlar	1800	60	4-7
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Bankir-iqtisodchi</b>			
		<b>Jami</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	
		<b>Malakaviy amaliyot</b>	900	30	8
		<b>Yakuniy davlat attestatsiyasi</b>			8
		<b>Jami</b>	900	30	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va o'quv dasturlari, profil, o'qib-o'rganish natijalari, tarmoqlar va sohalar, malaka talablari, bakalavriatning o'quv jarayoni, bank, bank tizimi, Markaziy bank, tijorat banklari, nobank kredit tashkilotlari, byudjetdan tashqari jamg'armalar, investitsiya va sug'urta tashkilotlari, auditorlik tashkilotlari, aksiyadorlik jamiyatlari, davlat hokimiyati organlari, mustaqil ta'lim, ishlab chiqarish, tashkiliy-boshqaruv faoliyati, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ishi, davlat attestatsiyasi, o'quv fanlari bloki, oliy ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, boshqaruv jarayoni, ishlab chiqarish, loyihalash, ilmiy tadqiqot jarayoni

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari hamda kadrlar iste'molchilari

ISHLAB CHIQILGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti  
Rektor prof. T.Z. Teshabayev

2024 yil



KELISHILDI:  
  
O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi  
Direktor M.O. Boltabayev

2024 yil "25" 06

M.O.

"Mikrokreditbank" aksiyadorlik  
tijorat banki Boshqaruvi  
raisi o'rinnbosari v.b

I.K. Djumaniyazov

2024 yil «14» 08

M.O.



"Poytaxt bank" aksiyadorlik  
jamiyatni Boshqaruvi raisi

X.U. Raxmatov

2024 yil «19» 08

M.O.

